

## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING KAPITALINI BAHOLASH NAZARIY JIHLARI

**Turanboyev Boburjon**

Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Kichik biznesning moliyaviy holatini baholash, korxoná menejmenti samaradorligini oshirishdan tortib, investitsiya qarorlarini qabul qilishgacha bo'lgan ko'plab strategik rejalarni amalga oshirishda ahamiyatli hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat kompaniyaning iqtisodiy holatini aniq belgilashga, balki moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'z kapitalining baholanishi, soliq bazasini aniqlash va sug'urta jarayonida aktivlarning qiymatini baholash kabi vazifalar, korxoná faoliyatining har bir bosqichida muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** maxsus qiymat, investitsiya qiymati, kapital, kichik biznes, biznesni baholash, asosiy kapital, buxgalteriya hisobi.

**Annotation.** Assessing the financial condition of small businesses is significant in implementing numerous strategic plans, from improving corporate management efficiency to making investment decisions. This process not only defines the economic status of the company but also plays a crucial role in making financial decisions. Additionally, tasks such as the valuation of equity, determining the tax base, and assessing the value of assets during the insurance process are essential at every stage of the company's operations.

**Key words:** special value, investment value, capital, small business, business valuation, fixed capital, accounting.

**Аннотация.** Оценка финансового состояния малого бизнеса имеет значительное значение для реализации множества стратегических планов, начиная от повышения эффективности управления компанией и заканчивая принятием инвестиционных решений. Этот процесс не только точно определяет экономическое положение компании, но и играет важную роль в принятии финансовых решений. Кроме того, такие задачи, как оценка капитала, определение налоговой базы и оценка стоимости активов в процессе страхования, являются важными на каждом этапе деятельности компании.

**Ключевые слова:** особая ценность, инвестиционная стоимость, капитал, малый бизнес, оценка бизнеса, основной капитал, бухгалтерский учет.

**Kirish.** O'rta va kichik biznesni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barqaror va izchil o'sishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ko'plab davlatlar kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotni mustahkamlash va modernizatsiya qilishda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqdalar. Ushbu korxonalar uchun iqtisodiy muhitni yaxshilash, soliqlarni qisqartirish, subsidiya va imtiyozlarni taqdim etish kabi usullar, ularning o'sishini rag'batlantirishga xizmat qilib, faoliyatida barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Kichik biznesning moliyaviy holatini baholash, korxoná menejmenti samaradorligini oshirishdan tortib, investitsiya qarorlarini qabul qilishgacha bo'lgan ko'plab strategik rejalarni amalga oshirishda ahamiyatli hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat kompaniyaning iqtisodiy holatini

aniq belgilashga, balki moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'z kapitalining baholanishi, soliq bazasini aniqlash va sug'urta jarayonida aktivlarning qiymatini baholash kabi vazifalar, korxonalar faoliyatining har bir bosqichida muhim hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Iqtisodiy rivojlangan davlatlar va iqtisodiyoti izchil yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish milliy iqtisodiyotni barqaror ravishda rivojlantirishning zarur va muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi ta'minlash uchun kichik biznes subyektlarining faoliyatiga alohida e'tibor qaratilib, turli chora-tadbirlarni faol ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- davlatlar tomonidan o'rta va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqilishi;
- soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq islohotlari amalga oshirilishi;
- hisobot berish talablari soddalashtirilishi;
- turli subsidiya hamda imtiyozlar taqdim etilishi va boshqa yana ko'pgina mana shunday chora-tadbirlarni sanashimiz mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va uni innovatsiyalarga rag'batlantirish muammolarini hal qilish kichik va o'rta biznes deb tasniflangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlarni yaratish va qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'liqdir.

Kichik biznes subyektlarining muammolar yuzasidan ilmiy-nazariy adabiyotlarning milliy olimlarimizga yoki tadqiqotchilarimizga tegishlilari juda kam uchraydi. Shunga qaramasdan ko'plab adabiyotlar o'rganilganda, ixtisoslashgan adabiyotlarda kichik biznesni buxgalteriya hisobi va analitik qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlariga juda kam e'tibor berilishi e'tiborni tortmasdan qolmaydi.

O'z faoliyat yuritayotgan korxonaning, o'z kapitalini baholash jarayoni - turli tomonlar, davlat tuzilmalardan tortib, shaxsiy manfaatlari va maqsadlari bo'lgan shaxslarga qadar qiziqarli bo'lishi mumkin.

Kichik biznes subyektlarining kapitalini yoki boshqacha aytganda biznes qiymatini baholash quyidagi maqsadlar uchun amalga oshiriladi:

- Korxonalar yoki firma boshqaruvining samaradorligini oshirish;
- Fond bozorida korxonalarining aksiyalari va obligatsiyalarini sotib olish yoki sotish;
- O'zini asoslab beradigan investitsiya qarorini qabul qilish;
- Korxonalar egasi tomonidan, tashkilotni butunlay yoki qism-qism bilan sotib olish yoki sotish;
- Ulushdoshlarning ulushini aniqlash;
- Korxonani qayta tashkil etishda, ya'ni korxonani tugatish, birlashish, qo'shib olish;
- Korxonaning rivojlanish rejasini ishlab chiqish jarayonida, ya'ni strategik rejalashtirish jarayonida korxonaning kelajakdagi daromadlarini, uning barqarorlik darajasini va imidj qiymatini baholash muhimdir;

- Korxonaning kredit qobiliyatini va kreditlash paytida garovning qiymatini aniqlash. Bu holatda baholash zaruriy holat hisoblanadi, chunki ko'pgina holatlarda, moliyaviy hisobotda aktivlar qiymati ularning bozor qiymatidan keskin farq qiladi;

- Sug'urtalash jarayonida, aktivlar qiymatini ehtimoliy yo'qotish oldidan aniqlash kerak bo'ladi;

- Soliq solinadigan bazani aniqlashda korxonaning daromadini va uning mulkini ob'ektiv baholash soliqlarni to'g'ri hisob-kitob qilishda ahamiyatlidir;

- Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida, inflatsiya korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun mustaqil baholovchilar tomonidan, mulkni davriy qayta baholash moliyaviy hisobotning realistikligini oshirishga yordam beradi, bu esa moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

- Biznesni rivojlantirish investitsiya loyihasini amalga oshirish. Bu holatda, korxonaning umumiy qiymatini, o'z kapitali va aktivlarini bilish orqali yangi loyihalarni amalga oshirishda ijobiy natijaga erishish mumkin.

Agar bitim obyekti korxonaning biror mulk elementi bo'lsa, yoki mulk solig'ini aniqlash zarur bo'lsa, alohida baholash talab etiladi, masalan, ko'chmas mulk, mashinalar va uskunalar, materiallar shular jumlasiga kiradi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish bo'yicha xalqaro darajada qabul qilingan standartlarda, kapitalning asosiy bazaviy qiymatlari quydagilar hisoblanadi:

Birinchi qiymat — bu tarixiy qiymat bo'lib, u aktivlarni sotib olishdagi haqiqiy qiymatni, ya'ni aktivlar sotib olinganda to'langan summani yoki majburiyat evaziga olingan summani anglatadi.

Joriy qiymat — bu hozirda aktivni sotib olish uchun to'lanishi kerak bo'lgan summa yoki hozirgi kunda shunga o'xshash yoki analog majburiyat evaziga olinishi mumkin bo'lgan summa sifatida tushuniladi.

Amaldagi qiymat — bu qaytarish narxi, ya'ni aktivni normal sharoitlarda sotishdan hozirgi vaqtda olinishi mumkin bo'lgan summa yoki majburiyatni qaytarish uchun zarur bo'lgan summa.

Bozor qiymati — bu aktivning eng ko'p qo'llaniladigan puldagi qiymati hisoblanadi. Ushbu shartlar ichida sotuvchi va xaridorning erkin ravishda shartnoma tuzishi, shuningdek, ob'ektning ochiq bozor orqali taqdim etilishi kabilar mavjud. Bozor qiymati, shuningdek, sotuvchining aktivni sotish majburiyati yo'qligini va xaridorning aktivni sotib olish niyatini hisobga oladi. Bu qiymat, aktivga bo'lgan talab va taklifning natijasi sifatida shakllanadi.

Investitsiya qiymati esa aniq shaxs yoki guruhning aktivni foydalanishdagi maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Bu qiymat bozor qiymatidan farq qiladi, chunki aktivning biror shaxs uchun qadrini aks ettiradi, bu esa qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Likvidatsion qiymat — bu aktivni majburiy ravishda sotishda eng ehtimoliy narxni aks ettiruvchi qiymatdir. Ushbu qiymatni belgilashda sotuvchini favqulodda holatlarda aktivni sotishga majbur qiluvchi shartlar hisobga olinadi. Likvidatsion qiymatning asosiy xususiyati — aktivning qisqartirilgan tayinlanish muddati, bu esa mulk egasining aktivni sotishga majbur bo'lishi bilan bog'liq.

Kadastr qiymati, o'z navbatida, ommaviy baholash usullari orqali belgilangan bozor qiymatini ifodalaydi. Bu qiymat ko'pincha soliq maqsadlari uchun ishlatiladi va qonun asosida tasdiqlanadi. Kadastr baholashlari, ob'ektlarning bozor qiymatini belgilashda va soliqdan kelib chiqadigan xarajatlarni hisobga olishda ahamiyatlidir.

**Xulosa.** O'rta va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va ularning qiymatini to'g'ri baholash, milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va kelajakdagi iqtisodiy o'sish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada ilmiy tadqiqotlar va nazariy adabiyotlar ko'payishi, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun juda muhimdir.

O'rta va kichik biznes subyektlarining biznes qiymatini baholash korxonaning ulushini sotib olish yoki sotish, korxonani butunlay yoki qismlarga bo'lib sotish, mavjud biznesga qo'shimcha investitsiyalar kiritish yoki undan kapitalni tartibli chiqarish, hamda korxonani tugatish bilan bog'liq faoliyatlarni amalga oshirishda o'z ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Kichik va o'rta biznes milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ko'plab davlatlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqmoqda, soliqlarni kamaytirish va hisobot berish jarayonlarini soddalashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Kichik biznes subyektlarining kapitalini baholash, ularning samaradorligini oshirish, investitsiya qarorlarini qabul qilish va kredit olish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Baholash jarayonida turli qiymat turlari, masalan, dastlabki qiymat, joriy qiymat va bozor qiymati kabilar ko'rib chiqiladi. Har bir qiymat turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, moliyaviy hisobotlarning aniq va ob'ektiv tayyorlanishida muhim rol o'ynaydi.

Kichik biznesni rivojlantirishda ilmiy-nazariy adabiyotlarning kamligi sezilarli muammo hisoblanadi. Bu sohada tajriba almashish va bilimlarni kengaytirish zarur. Shuningdek, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va baholash jarayonlarini soddalashtirish, ularning bozor sharoitlariga mos ravishda yaxshilanishi kerak.

Shu bilan birga, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, subsidiyalar va qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni kengaytirish orqali kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish lozim. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil bo'lishi kutilmoqda.

O'rganilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar xulosalaridan kelib chiqqan holda umumiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining biznes qiymatini baholash bo'yicha alohida mexaniz ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Buning uchun ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni kengaytirish hamda har tomonlama qo'llab quvvatlash zarur bo'ladi. Har bir kichik biznes subyektlari o'zining biznes qiymatini sodda va aniq uslubda aniqlay olishlari ularga ushbu tezisda o'rganilib, qayd etilgan qulaylik va yengilliklar berishi bilan ahamiyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреева С.Ю., Яковлева Т.В. Нормирование оборотных активов как средство управления оборотным капиталом предприятия. // Экономический анализ: Теория и практика, 2005.

2. Антил Ник, Оценка компаний: Анализ и прогнозирование с использованием отчетности по МСФО. -М.: Альпина Бизнес Букс, 2007

3. Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, & Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o'g'li. (2023). MAMLUKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA SOLIQ TURLARINING TA'SIRI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 53–60.